



CONSENT OF BIOLOGICAL PARENTS IN ADOPTION: LEGAL FOUNDATIONS AND SCIENTIFIC ANALYSIS

Nasiba Khudaiberdievna Begimova

Independent researcher at the law enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

E-mail: nasiba.begimova@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: adoption, parental consent, revocation of consent, child, biological parents.

Received: 11.02.26

Accepted: 12.02.26

Published: 13.02.26

Abstract: The article analyzes the legal framework for obtaining parental consent in the adoption process, the scope of individuals whose consent is required, and the role of this institution in ensuring the best interests of minor children. The study examines various scholarly perspectives and provides a comparative analysis of the experiences of developed nations. The conclusion offers specific recommendations for the improvement of national legislation.

FARZANDLIKKA OLISHDA BIOLOGIK OTA-ONANING ROZILIGI: HUQUQIY ASOSLAR VA ILMIY TAHLIL

Nasiba Xudayberdievna Begimova

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

E-mail: nasiba.begimova@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: farzandlikka olish, ota-onani roziligi, rozilikni qaytarib olish, bola, biologik-ota-ona.

Annotatsiya: Maqolada farzandlikka olish jarayonida ota-onaning roziligini berishning huquqiy asoslari, rozilik olinishi lozim bo'lgan shaxslar doirasi va ushbu institutning voyaga yetmagan bolalar manfaatlarini ta'minlashdagi o'rni, rozilikni qaytarib olish jarayoni tahlil qilinadi. Maqolada olimlarning fikrlari o'rganilgan bo'lib, rivojlangan davlatlar tajribasi qiyosiy

tahlil etilgan. Xulosada milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

СОГЛАСИЕ БИОЛОГИЧЕСКИХ РОДИТЕЛЕЙ ПРИ УСЫНОВЛЕНИИ: ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ И НАУЧНЫЙ АНАЛИЗ

Насиба Худайбердиевна Бегимова

Независимый исследователь

правоохранительных Академии Республики Узбекистан

E-mail: nasiba.begimova@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: усыновление, согласие родителей, отзыв согласия, ребенок, биологические родители.

Аннотация: В статье анализируются правовые основы предоставления согласия родителей в процессе усыновления, круг лиц, чье согласие необходимо получить, а также роль данного института в обеспечении интересов несовершеннолетних детей. В работе изучены мнения ученых и проведен сравнительный анализ опыта развитых стран. В заключении представлены предложения по совершенствованию национального законодательства.

Kirish. Kirish. Insoniyat tarixida oila-muqaddas qo'rg'on, bola esa shu qo'rg'onning nuri va davomiyligi hisoblanadi. Biroq hayotning murakkab sinovlari sabab ba'zan go'daklar oilaviy muhitdan mahrum bo'ladilar. Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning eng ustivor yo'nalishi "Inson qadri uchun" tamoyili asosida har bir bolaga oilaviy muhitni qaytarib berishdir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda bolalar uylarini bosqichma-bosqich kamaytirish va u yerdagi tarbiyalanuvchilarni oilalarga qaytarish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Zero, davlat qanchalik sharoit yaratmasin, Mehribonlik uyidagi eng zamonaviy qulayliklar ham oilaviy muhitdagi ona mehri va ota e'tiborining o'rnini bosa olmaydi. Shu bois, farzandlikka olish bu shunchaki hujjatlardagi o'zgarish emas, balki jamiyatimizdagi ma'naviy uyg'onish va bag'rikenglikning oliy namunasiga aylangan.

O'zbekiston Respublikasida farzandlikka olish to'g'risidagi ishlar sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Sud majlisi ishtirokchilari barcha tushuntirishlarini sud majlisida bayon qiladi.

Sudlarda farzandlikka olish to'g'risidagi fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish va hal qilishda ishtirok etishi mumkin bo'lgan barcha sub'ektlarni ikkita asosiy guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruh - qonun talablariga binoan ishtirok etishi majburiy yoki zarur bo'lgan shaxslar. Bu guruhga - farzandlikka oluvchilar (farzandlikka oluvchi), prokuror, vasiylik yoki homiylik organi vakillari kiradi va bu shaxslar sud majlisiga kelmasa, ishni ko'rish boshqa kunga qoldiriladi. Chunki ularning ishtirokisiz ishni to'g'ri ko'rib chiqish, qonuniy va oqilona qaror qabul qilish mumkin emas.

Ikkinchi guruh - ishtiroki ixtiyoriy deb hisoblangan shaxslar. Farzandlikka olish to'g'risidagi fuqarolik ishini ko'rib chiqish va hal qilish, shuningdek, ularsiz sud qarorini chiqarish mumkin. Bularga bolaning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari, uning qarindoshlari, boshqa manfaatdor shaxslar va o'n yoshga to'lgan bolaning o'zi kiradi. Bu guruh vakillari zarurat tug'ilganda sudda ishtirok etishlari mumkin.

Ishni sud majlisiga tayyorlash bosqichida bo'lgan sudya ushbu shaxslar guruhi vakillarini ishda ishtirok etishga jalb qilish masalasini hal qilishi lozim. Chunki bu toifadagi ishlarni ko'rib chiqishda bolaning manfaatlari har doim birinchi o'rinda turadi. Bu ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni joylashtirishning eng ustuvor shakli sifatida farzandlikka olish institutining mohiyati va maqsadi bilan izohlanadi.

Bugungi davr talabi shundan iboratki, farzandlikka olish jarayoni nafaqat soddalashtirildi, balki uning shaffof va adolatli bo'lishi uchun raqamli texnologiyalar joriy etildi. Bu islohotlar zahirida birgina maqsad yotibdi - bolaning taqdirini ishonchli qo'llarga topshirish. Mazkur jarayonning eng murakkab, shu bilan birga eng muhim nuqtasi esa farzandlikka olishga beriladigan rozilik masalasidir. Bu rozilik shunchaki rasmiyatchilik emas, balki bir bolaning kelajagi, uning huquqlari va ertangi baxti uchun kafolatdir.

Rozilik - bu shaxsning muayyan huquqiy oqibatlarga olib keluvchi harakat yoki munosabatini amalga oshirishga nisbatan erkin, ongli va ixtiyoriy ravishda bildirilgan irodasidir.

Oila huquqining fundamental tamoyillaridan biri - bolaning o'z oilasida yashash va tarbiyalanish huquqidir. Shu bois, bolani boshqa oila tarbiyasiga berish (farzandlikka olish) uchun uning biologik ota-onasining roziligi nafaqat milliy qonunchilik, balki inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarning ham talabidir.

Farzandlikka olishning muhim shartlaridan biri bu ota-onaning roziligi hisoblanadi. Bu rozilik notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak. Shu bilan birga farzandlikka olish to'g'risidagi ish yuritilayotganda ota-ona o'z roziligini sudda bayon etishi mumkin.

Ota-onaning roziligi faqat bola tug'ilganidan keyingina olinadi. Bu onaning homiladorlik davridagi nobarqaror ruhiy holatidan foydalanib, rozilik berishga majburlashning oldini olishga qaratilgan.

Ota-ona roziligining ikki turi mavjud:

1. Maqsadli rozilik – bunda ota-ona bolani aniq bir shaxsga berishga rozilik beradi.

2. Anonim rozilik: Ota-ona bolani farzandlikka berishga rozi bo'ladi, lekin uni kim asrab olishini bilmaydi. Bunda farzandlikka oluvchilarni tanlash ixtiyorini vasiylik va homiylik organiga havola qiladi [1].

Farzandlikka olishda ota-onaning roziligi masalasi nafaqat huquqiy, balki fundamental insoniy huquqlar bilan bog'liq murakkab jarayondir.

Bu borada huquqshunos olimlar o'z tadqiqotlarida "biologik aloqa" va "bola manfaati" o'rtasidagi muvozanatni tahlil qilishgan.

Adabiyotlar sharhi. Rossiyalik olim A.M.Nechaeva ota-onaning roziligini "bolaning huquqiy taqdirini belgilovchi yuridik fakt" deb ataydi. Uning ta'kidlashicha, rozilik muayyan bir shaxsga (asrab oluvchiga) nisbatan yoki shaxsni ko'rsatmasdan berilishi mumkin, biroq ikkala holatda ham bu hujjat notarial tasdiqlanishi yoki muassasa rahbari tomonidan shahodatlanishi shart [2].

I.V.Getman-Palova ota-ona rozilik berishda hech qanday moddiy manfaatdorlik yoki majburlov bo'lmasligi kerakligini ta'kidlagan [3].

Biz A.M.Nechaeva va I.V.Getman-Palovalarning fikrlariga qo'shilamiz. Chunki, ota-ona o'z roziligini berish orqali bolaga nisbatan barcha huquq va majburiyalarini boshqa shaxsga o'tkazadi. Bolasini boshqa shaxsga berishda moddiy manfaatdorligi bo'ladigan bo'lsa bu holatda bolani sotish jinoyatini sodir etgan bo'ladi. Majburiy bolasini olish oqibati ham keyinchalik farzandlikka olishni bekor qilishga olib keladi.

Xorijiy davlatlar, ayniqsa Yevropa va MDH mamlakatlari olimlari farzandlikka olishda ota-ona roziligini "biologik huquq va ijtimoiy mas'uliyat to'qnashuvi" sifatida talqin qiladilar. Ularning fikrlari asosan bolaning manfaati va biologik ota-onaning tabiiy huquqlarini muvozanatlashga qaratilgan.

Fransuz huquqshunosi J.Karbone (Jean Carbonnier) - rozilik masalasini "inson taqdiri ustidan ixtiyoriy voz kechish" deb baholagan. "Ota-onaning roziligi shunchaki hujjat emas, bu bola va ota-ona o'rtasidagi tabiiy (qon-qarindoshlik) aloqani huquqiy jihatdan "o'ldirish" demakdir. Shu sababli, rozilik hech qanday shartlarsiz, mutlaq va voz kechilmas bo'lishi kerak deb ta'kidlaydi" [4].

Buyuk Britaniyalik huquqshunos Lord Bingxem (Lord Bingham) farzandlikka olishda ota-onaning roziligini “inson huquqlarining eng nozik nuqtasi” deb ataydi. Uning qarashicha, agar ota-ona asossiz ravishda rozilik berishdan bosh tortsa, bu “bolaning farovon yashash huquqini buzish” deb baholanishi va sud tomonidan bu rozilik chetlab o‘tilishi (dispensing with consent) mumkin [5].

Xalqaro ekspert M.V.Antokolskaya (M.V. Antokolskaia) fikricha, ota-ona roziligini “cheklangan huquq” deb hisoblaydi. Ya’ni, ota-ona rozilik berganda, ular o‘z huquqlaridan voz kechish bilan birga, bolaning yangi oilada yaxshiroq yashashiga imkoniyat yaratadilar. Agar ota-onaning rozilik bermasligi bolaga zarar keltirsa, jamiyat manfaati ustun qo‘yiladi [6].

Biz Fransuz huquqshunosi J.Karbonening fikriga qo‘shilamiz. Chunki ota-onaning roziligi hech qanday shartlarsiz, mutlaq va voz kechilmasligi kerak. Chunki, ota-ona rozilik berayotganda bolasini taqdirini o‘ylashi, o‘zini ham ichki dunyosi shunga tayyor bo‘lishi, rozilikni oqibatini to‘liq tushunishi va xis qilishi kerak.

Muallif Lord Bingxem va M.V.Antokolskayaning ota-onaning roziligini chetlab o‘tgan holda bolani farzandlikka berish kerak degan fikrlariga qo‘shilmaydi. Chunki ota-ona roziligi talab etilmaydigan holatlardan tashqari ota-ona rozilgisiz bolani farzandlikka berish bolani manfaatlariga zid hisoblanadi. Bola har qanday holatda ham o‘z ota-onasi bag‘rida tarbiya olishi kerak. Chunki farzandlikka olish to‘g‘risidagi ishlarda nizo mavjud bo‘lmaydi.

Tahlil va natijalar. O‘n olti yoshga to‘lmagan ota-onaning bolasi farzandlikka olinayotganda ularning roziligidan tashqari ota-ona qonuniy vakillarining, qonuniy vakillar mavjud bo‘lmagan taqdirda esa vasiylik va homiylik organining ham roziligi talab etiladi. Bu voyaga yetmagan ota-onalarning o‘z qarorlari oqibatini to‘liq anglab yetmasliklari ehtimoli bilan bog‘liqdir.

Qonunda ota-ona roziligi talab etilmaydigan holatlar ham belgilangan. Farzandlikka olish quyidagi hollarda:

ota-onaning kimligi noma’lum bo‘lsa;

ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo‘lsa;

ota-ona muomalaga layoqatsiz, bedarak yo‘qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e’lon qilingan bo‘lsa;

ota-ona bir yildan ortiq muddat davomida bolalar yoki davolash muassasalaridagi bolasidan uzrli sabablarsiz xabar olmagan bo‘lsa, ota-onaning roziligi talab etilmaydi.

Bunday holatda sud ishni sud muhokamasiga tayyorlash bosqichida ota-ona roziligi talab etilmaydigan holatlarni tasdliqlovchi dalillar ish hujjatlarida mavjud yoki mavjud emasligini to'liq o'rganib chiqishi lozim.

Qonunchilikda hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 11.12.2013 yildagi "Sudlar tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida" gi 21-sonli qarorida sudlari tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash yuzasidan qator tushuntirishlar berilgan bo'lsada, sud amaliyotida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlar to'liq yoritilmaganligi sababli, biz tadqiqot jarayonida ushbu holatlarga o'z fikrlarimizni bildirib ketishni lozim deb hisoblaymiz.

Farzandlikka olish haqidagi ishni ko'rish jarayonida ota-onaning kimligi noma'lum bo'lgan, bedarak yo'qolgan yoki vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaro qaytib kelib, farzandlikka olishga o'z e'tirozini bildirganda sudyani harakatlari qonunchiligimizda belgilanmagan.

Bizning fikrimizcha, Plenum qaroriga quyidagi normalarni kiritish lozim.

Sud farzandlikka olish haqidagi ishni ko'rishda agar kimligi noma'lum bo'lgan fuqaro homiladorligini va bola tug'ilganligini qandaydir sabablarga ko'ra oshkor qilmagan bo'lib, keyinchalik ota-onalikni belgilash haqida da'vo ariza bergan bo'lsa, sud shu ish yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar farzandlikka olish to'g'risidagi ishni ko'rishni to'xtatib turishi lozim.

Fuqarolik protsessual kodeksining 309-moddasida, bedarak yo'qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaro qaytib kelgan yoki uning turgan joyi aniqlangan taqdirda, sud o'zining ilgarigi hal qiluv qarorini yangi hal qiluv qarori bilan bekor qiladi. Yangi hal qiluv qarori tegishincha mol-mulkka nisbatan boshqaruvni yoki fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftaridagi fuqaroning vafotiga doir yozuvni bekor qilish uchun asos bo'lishi belgilangan. Mazkur qonun talabi mazmunidan kelib chiqib, agar farzandlikka olish bilan bog'liq ishlar ko'rilishi jarayonida bedarak yo'qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaro qaytib kelgan taqdirda, sud o'zining ilgarigi hal qiluv qarorini yangi hal qiluv qarori bilan bekor qilguniga qadar ishni to'xtatib turish kerak.

Bundan tashqari, sud farzandlikka olish to'g'risida hal qiluv qarori qabul qilinganidan keyin bedarak yo'qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaro qaytib kelib, sudning unga nisbatan ilgarigi chiqarilgan hal qiluv qarori yangi hal qiluv qarori bilan bekor qilinganda farzandlikka olishni bekor qilish haqida da'vo ariza bilan murojaat qilish huquqi vujudga kelishi lozim.

Ota-ona (ulardan biri) ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda bolani farzandlikka olishga ota-ona (ulardan biri) ota-onalik huquqidan mahrum qilinganligi to'g'risidagi sudning hal qiluv

qarori chiqarilgan kundan keyin kamida olti oy o'tgach yo'l qo'yilishi belgilangan. (OK 81-m.) Oila Kodeksi talablariga ko'ra, bola farzandlikka olingan va farzandlikka olish bekor qilinmagan bo'lsa, ota-onalik huquqini tiklashga yo'l qo'yilmaydi [7].

Agar ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lib, bolani farzandlikka olishdan ulardan roziligi talab etilmaydigan bo'lsa, ota-ona (ulardan biri) o'z xulq-atvorini, turmush tarzini va (yoki) bola tarbiyasiga bo'lgan munosabatini o'zgartirganda ota-onalik huquqi tiklanishi bilan bog'liq huquqlarini cheklanishiga sabab bo'ladi.

Shu sababli, farzandlikka olishda ota-onani roziligi talab etilmaydigan shaxslar toifasidan ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilingan shaxslarni chiqarish lozim.

Masalan, Xitoyda yashash sharoitlari qiyinligi tufayli bolasini boqa olmaydigan biologik ota-onalar birgalikda voyaga yetmagan bolasini farzandlikka berishlari haqida tashabbus bilan chiqishlari mumkin. Agar biologik ota-onalardan biri noma'lum bo'lsa yoki uning manzili topilmasa, voyaga yetmagan bola boshqa biologik ota-onaning tashabbusi bilan farzandlikka olishga berilishi mumkin [8].

Belorussiyada ham bola ota-onasining roziligi farzandlikka olishda majburiy shart ekanligi belgilangan. Farzandlikka olishga rozilik har bir ota-ona tomonidan, ular bola bilan birga yoki alohida yashashidan qat'i nazar, bildirilishi kerak. Otaning farzandlikka olishga roziligi, shuningdek, uning otaligi sud qarori bilan belgilangan hollarda ham talab qilinadi [9].

Oila qonunchiligiga ko'ra, farzandlikka olish to'g'risidagi hal qiluv qarori chiqarilguniga qadar ota-ona bolani farzandlikka olinishiga bergan roziligini qaytarib olishi mumkin [10].

Biroq, qonunchilikda ota-ona roziligini qaytarib olish muddati aniq belgilanmagan, faqatgina "sud qarori chiqquniga qadar" qaytarib olish mumkinligi ko'rsatilgan.

Bu masala huquqshunoslar o'rtasida eng ko'p munozaraga sabab bo'ladigan nuqtadir.

Olim I.V.Getman ta'kidlashicha, rozilikni qaytarib olish huquqining cheklanmaganligi farzandlikka oluvchilar uchun "huquqiy noaniqlik" yaratadi va bolaning barqaror oilaviy muhitga bo'lgan huquqini xavf ostiga qo'yadi [11]. Shu sababli, ayrim davlatlarda rozilik berilgandan so'ng 30 kunlik "o'ylanish muddati" (revocation period) belgilanadi.

Rossiyalik olim M.A.Nechaevaning ta'kidlashicha, shaxsini ko'rsatmasdan berilgan rozilik davlatga bola taqdirini hal qilish uchun to'liq vakolat beradi va bu jarayonda ota-onaning keyinchalik fikridan qaytishi bola uchun psixologik jarohat bo'lishi mumkin [12].

Nemis olimi D.Xenrix fikricha, ota-onaning bolani farzandlikka olishga bergan roziligini qaytarib olishi uchun muddatni berilishi, onani tug'ruqdan keyingi depressiya ta'sirida shoshilinch qaror qabul qilishdan asraydi [13].

Amerikalik professor E.Bartolet ta'kidlashicha, uzoq kutish muddatlari bolaning ruhiy salomatligiga va uning yangi ota-onasi bilan bog'lanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [14].

Xorijiy davlatlar qonunchiligiga nazar tashlasak, Fransiya ota-ona rozilik berganidan so'ng ikki oylik "o'ylab ko'rish uchun muddati" beriladi. Ushbu muddat davomida ota-ona hech qanday sabab ko'rsatmasdan o'z roziligini qaytarib olishi va bolani qaytarib berishni talab qilishi mumkin [15]. Bu vaqt ota-onaga o'z qarorining naqadar to'g'riligini mushohada qilish imkonini beradi.

Germaniyada onaning roziligi bola tug'ilganidan kamida 8 hafta o'tgachgina yuridik kuchga ega bo'ladi [16].

Amerikaning 33 ta shtati bola tug'ilgandan keyin rozilik berishdan oldin kutish muddatini talab qiladi. Kutish muddatlarini talab qiladigan shtatlar orasida eng qisqa kutish muddatlari 12 soat (Kanzasda), 24 soat (Yuta shtatida) va 36 soat (Vermontda) va eng uzuni 15 kun (Rod-Aylendda). 18 ta shtatda talab qilinadigan eng keng tarqalgan kutish muddati 72 soatni tashkil etadi (3 kun deb ham ifodalanadi) [17].

Bizning fikrimizcha, ota-onaning roziligini qaytarib olish uchun aniq muddatni belgilanishi, ota-onani farzandidan uzoqlashganda uni yo'qotayotganligini xis qilishi uchun imkon beradi.

Amaliyotda ota-ona bola tug'ilguniga qadar farzandlikka oluvchiga bolasini berishga va'da berib qo'yadi va bola tug'ilganidan keyin va'dasini bajarish uchun ham notarial rozilik beradi. Biroq, bolasini ko'rgan sari ularda ota-onalik tuyg'ulari kuchayib boradi va bu o'z navbatida bolasini qaytarib olish hissini yuzaga keltiradi.

Farzandlikka oluvchi, biologik ota-ona va bola shu holatga ko'nikishi uchun ham vaqt talab etiladi. Shu sababli, ota-ona bolasini farzandlikka berishda roziligini qaytarib olish uchun kamida uch oy vaqt berish lozim.

Ota-ona o'z roziligini qaytarib olgan yoki yo'qligini aniqlash uchun bolaning biologik ota-onasining sud majlisida ishtirokini majburiy qilib belgilash kerak. Chunki biologik ota-ona o'z roziligini oila a'zosidan birining tazyig'i bilan bergan yoki bola farzandlikka oluvchilarda emas, balki xali ham o'zining ota-onasidan yashayotgan yoki yana boshqa asoslar bilan ota-onalarining roziligi olingan bo'lishi mumkin.

Shu sababli, birinchi guruh - qonun talablariga binoan ishtirok etishi majburiy yoki zarur bo'lgan shaxslar toifasiga bolaning biologik ota-onasini ham, ya'ni, Fuqarolik protsessual kodeksining 302-moddasi birinchi qismiga "Sud farzandlikka olish to'g'risidagi ishlarni farzandlikka oluvchilar (oluvchi), farzandlikka olinayotgan bolaning ota-onasi (otasi yoki onasi),

vasiylik va homiylik organlarining vakillari, shuningdek prokuror albatta ishtirok etgan holda ko‘rib chiqadi” jumlasini kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Qonunchilikda ota-ona bolaning farzandlikka olinishiga bergan roziligini qaytarib olishga haqli ekanligi belgilangan bo‘lsada, bu vaziyatda sud qanday qaror qabul qilishi kerakligi belgilanmagan. Bu o‘z navbatida yagona sud amaliyoti shakllanmasdan, ikki xil mazmundagi sud qarori chiqarilishiga sabab bo‘lmoqda.

Masalan, FIB tumanlararo sudining 15.01.2025 yildagi ajrimi bilan arizachi M.N. sud majlisida bolani farzandlikka berish haqidagi arizasini qaytarib olishini aytgan. Sud ishni muhokama qilish vaqtida sudga taalluqli nizo kelib chiqqanini asos qilib FPKning 122-moddasi 7-bandiga asosan ko‘rmasdan qoldirgan.

Boshqa bir sud qarorida bolaning onasi F. bolasini arizachilarga farzandlikka berishga rozi emasligini bildirgan. FIB tumanlararo sudi 20.01.2025 yildagi hal qiluv qarori bilan bolaning onasi roziligini qaytarib olganligi uchun arizani rad qilgan.

Qozog‘istonda bunday holda sud farzandlikka olish haqidagi arizani rad qilishi aniq belgilangan [18].

Bizning fikrimizcha, bolaning ota-onasi bolasini farzandlikka olishga bergan roziligini qaytarib olsa, hech qanday tortishuvsiz sud arizani rad qilishi lozim.

Shu sababli, Oila kodeksiga 159-moddasi to‘rtinchi qismini “sud tomonidan farzandlikka olish to‘g‘risidagi hal qiluv qarori chiqarilguniga qadar ota-ona bolaning farzandlikka olinishiga bergan roziligini qaytarib olishga haqli. Bunday holda sud farzandlikka olish haqidagi arizani rad qiladi” degan jumla bilan to‘ldirishni tavsiya qilamiz.

Xulosa qilib aytganda, farzandlikka olishda ota-onaning roziligi - bu oilaviy huquqiy munosabatlarning barqarorligini ta‘minlovchi asosdir. Ushbu jarayonda davlatning asosiy vazifasi biologik ota-onaning huquqlari va bolaning yangi oilada baxtli yashash imkoniyatlari o‘rtasidagi muvozanatni topishdan iborat. Qonunchilikdagi bo‘shliqlarni to‘ldirish va rozilik berishning huquqiy oqibatlarini ota-onalarga to‘g‘ri tushuntirish kelajakda turli nizoli vaziyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Sudlar tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining Qarori 11.12.2013 y. №21.
2. Нечаева А.М. “Семейное право: актуальные проблемы теории и практики”, 2011.

3. Гетьман-Павлова И.В. “Международное частное право”, 2013
4. Carbonnier J. “Droit civil. Volume 2: La famille, l'enfant, le couple”, PUF, Paris, 2004.
5. Bingham T. "The Rule of Law", Penguin Books, 2011 (Оилавий низолар ва розилик концепцияси таҳлилида).
6. Antokolskaia M. "Harmonisation of Family Law in Europe: A Historical Perspective", Intersentia, 2006.
7. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. 30.04.1998. <https://www.lex.uz>
8. Гражданский Кодекс Китайской Народной Республики. 2025 г. www.prospekt.org
9. Belorussiya Respublikasi “Nikoh va oila kodeksi” 127-m.
10. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi.. 30.04.1998. 159-m. <https://www.lex.uz>
11. Гетьман И.В. Правовые аспекты усыновления. — СПб, 2010. — С. 89.
12. Нечаева А.М. Семейное право: учебник для бакалавров, Юрайт, 2015.
13. Henrich D. Familienrecht. — München: Beck, 2009
14. Bartholet E. Family Bonds: Adoption, Infertility, and the New World. — Harvard, 1999.
15. Code Civil de France. Version 2024.
16. Bürgerliches Gesetzbuch (BGB). § 1747.
17. Farzandlikka olishga rozilik (Consent to Adoption). Davlat qonunlari. 2021 y.
18. Qozog‘iston Respublikasi Oliy sudining “Sudlar tomonidan bolalarni asrab olish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida” gi Qarori. 31.03.2016 yil № 2.